



**MUSTAQILLIK DAVRI YOSH SHOIRLARI IJODIDA OLAMNI
BADIY-FALSAFIY IDROK ETISH TAMOYILLARI**

Saitova Nilufar Djumaydillayevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
o‘zbek til va adabiyoti kafedrasи o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik davrida yosh shoirlarning ijodida olamni badiy-falsafiy idrok etish ta'moillari tahlil qilinadi. Shoirlar o‘z asarlarida hayot, tabiat va inson ruhining mohiyatini chuqur o‘rganib, zamonning turli jihatlarini aks ettirishda ramz va metaforalarni muvaffaqiyatli qo‘llaydilar. Ularning badiiy ifodalari milliy ruh, shaxsiy fikr va ijtimoiy masalalarni birlashtirib, zamonaviy adabiyotda yangi mavzularni ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, yosh shoirlar, badiiy ijod, falsafa, olamni idrok etish, ramzlar, metafora, milliy ruh, zamonaviy adabiyot, atrof-muhit, hayot inson ruhining mohiyati, ijtimoiy masalalar, shaxsiy fikr, yangi mavzular

Abstract: This article analyzes the trends in the artistic and philosophical perception of the world in the work of young poets during the period of independence. Poets, deeply studying the essence of life, nature and the human spirit in their works, successfully use symbols and metaphors to reflect various aspects of the time. Their artistic expressions combine the national spirit, personal thoughts and social issues, revealing new themes in modern literature.

Keywords: Independence, young poets, artistic creativity, philosophy, perception of the world, symbols, metaphor, national spirit, modern literature, environment, life, the essence of the human spirit, social issues, personal thoughts, new themes

Mustaqillik davri O‘zbekiston adabiyotida yangi sahifalar ochdi. Bu davrda yosh shoirlar o‘z ijodlarida o‘zlariga xos ovoz va uslub qidirishga kirishdilar. Ularning ijodi o‘ziga xos tajriba va yangicha izlanishlar bilan ajralib turadi. Yosh



shoirlar o‘z shaxsiy tajribalarini, his-tuyg‘ularini va falsafiy qarashlarini hayot voqealari bilan bog‘lab, o‘z asarlarida ijodiy ifodalashga harakat qilmoqdalar. Ularning she’rlarida borliq va inson hayoti haqida to‘g‘ri, badiiy va chuqur fikrlar aks etadi. Ushbu tadqiqotda Mustaqillik davrining yosh shoirlarining ijodida olamni badiiy-falsafiy idrok etish ta’moillari tahlil qilinadi, bu ijodiy jarayon chiroyligini va mo‘jizaviyligini ochib beradi. Mustaqillik davrida ijod qilib, o‘z ovoz va uslubini qidirayotgan, she’riyatda, yangicha izlanishlar olib borayotgan uchinchi avlod ijod vakillari sifatida Jontemir Jondor, Alisher Sabriy, Shavkat Shaxriyor, Madina Norchayeva, Tillaniso Nuryog‘dularni, Sirojiddin Ibrohim, Bek ali, Suhrob Ziyo, Rafiq O‘zturk, Nodira Nazar, Azizbek Norov, Muhammad Siddiq, Feruza Hayrullayeva kabi qator shoir va shoiralarni sanab o‘tish mumkin. Bu davr she’riyati haqida uzil-kesil bunday xulosa chiqarib bo‘lmaydi, albatta, yangilanishlar, borliq va voqelikni idrok etish har bir shoir ijodida turlicha namoyon bo‘lishi tabiiy. “Ijodkor shaxsning borliq, inson, insonlik hayotiga oid qarashlari san’at va adabiyotdagagi eng muhim nuqtadir. Chunki uning butun ijodi shu nuqtadan ibtido oladi. San’atda hayot mantig‘ini buzmay, hayot haqiqatiga xiyonat qilmay uni to‘g‘ri aks ettirish, unga ongli va to‘g‘ri munosabat, to‘g‘ri talqin va targ‘ibning boshlang‘ichi ayni shu nuqtadadir”.¹

Mustaqillik davri yosh shoirlarining ijodida olamni badiiy-falsafiy idrok etish juda ko‘plab yangi nuqtai nazarlarni keltirib chiqardi. Ularning asarlarida xalq hayoti, tabiat va ichki kechinmalar murakkab bir manzarada ifoda etiladi. Shunday shoirlardan biri Xurshid Abdurashid she’rlariga nazar tashlasak...

O‘SHA MEN EDIM...

Derazang yoniga qo‘ndi kabutar
Ilkida o‘rog‘liq maktub bor edi.
Senga boqib turgan ma’yus ko‘zлари,
Shu onda nedandir umidvor edi.
Sen esa pardani yopib qo‘yding jim,

¹ Райхонова М. Абдулла Орипов шеъриятида оламни идрок этиш ва бадиий воқелантириш тадрижи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Қарши 2021.



O‘sha men edim-ku, o‘sha men edim.

Ko‘chaga chiqding sen bog‘ aylangani,
Daydi shamollarday xayoling tarqoq.
Bog‘ kezib yurarding shunda nogahon
Oyog‘ing ostiga tushdi bir yaproq.
O‘sha yaproq kabi sochilgandi kim?
O‘sha men edim-ku, o‘sha men edim.

Bog‘da gullar terding avaylab asta
Nogoh qo‘llaringga sanchildi tikan.
Nozik qo‘ling bilan sug‘urding uni
Deding “Shunday gulda tikan bor ekan”.
Senga talpingandi shu tikan , gulim,
O‘sha men edim-ku, o‘sha men edim.

So‘ng qaytding uyingga o‘y surib sokin,
Deraza yoniga qo‘yding gullarni.
Tin olmoq dardida cho‘kding to‘shakka
Va yig‘lab o‘qiding “O‘tkan kunlar”ni.
Kimnidir o‘ylading, ko‘zлari sim-sim,
O‘sha men edim-ku, o‘sha men edim.²

Bu she’rda muallif sevgi va xafa bo‘lish hissiyotlarini ifodalaydi. Deraza yonida kabutar va maktub simvollar orqali umid va xotira tasvirlanadi. Qahramon o‘z tuyg‘ularini o‘rganib, o‘sha paytlarda bo‘lgani kabi hissiyotlar bilan bog‘lanadi. Ko‘chada yurish va bog‘da gullar terish paytida, shuningdek, tikan va yaproq obrazlari orqali muammolar va to‘silalar keltiriladi. Qahramonning his-tuyg‘ulari, o‘tkazilgan kunlarga bo‘lgan iztirob va xotiralar bilan birlashadi. Yig‘lash orqali o‘tmishni eslab, sevgi va yo‘qotishning murakkabligini aks ettiradi. Bu she’r, ya’ni

²



sevgi va unutish haqidagi hikoya, har birimizga tanish. Shoirlar tabiatni birinchi navbatda insonning ichki kechinmalari bilan bog‘laydi. Tabiyat ularga hayotning ma'nosi va inson ruhining nozikligini anglatadi. Aqli tavsiflar orqali yosh shoirlar hayotning vaqtincha ta'siri, o‘lim va avlodlar o‘rtasidagi munosabatlarni yoritadi. Ularda o‘lim - hayotning tabiatida bor, shuning uchun yashashni chiroyli va mazmunli qilishga urinish ko‘rinadi. Shoirlar ijtimoiy muammolarga ham e'tibor qaratadi, adolat, tenglik va haqiqiy erkinlik g‘oyalarini o‘z asarlarida yoritadi. Yosh shoirlarning ijodida ichki kechinmalar va hissiyotlar alohida o‘rin egallaydi. Ular o‘z hayotlaridagi xafa bo‘lish, sevgi, umid va orzularni to‘g‘ri ifodalaydi. Shunday qilib, mustaqillik davri yosh shoirlari olamni idrok etish bilan bir qatorda, uni qanday qilib yanada chiroyli va mazmunli qilishga intilmoqda. Bu ijodda falsafa va badiiyat uyg‘un holda bir-birini to‘ldirib turadi.

Yosh shoirlar ichida o‘zining eng sara ijod namunalari bilan ajralib turadigan Jontemir Jondor quyidagi “Qon” she’ridan olingan parchada o‘zini o‘rab turgan borliqqa qarata shunday hayqiradi:

Ey zamin, ey osmon, ey cheksiz ummon,
Men seni bir satr she’rga sig‘dirdim,
Sen meni o‘zingga sig‘dirib ko‘r-chi!³

Shoir uchun butun borliqni bir satr she’rga sig‘dirish, singdirish hech gap emas, ammo shu borliqdan bino bo‘lgan o‘zligi dunyolarga sig‘maydi.

Shoir Shahriyor Shavkat esa dunyoni, borliqni qanday bo‘lsa shu holicha sevadi.

Bezayotir suvoqrang o‘pich
Qashqadaryo sohillarini.
Simiraman quyuq shamolday
Idrokimga sig‘mas tuyg‘uni:
“Men dunyoni nega yomonlay?
Axir Tangrim yaratgan uni!”⁴

³ Жонтемир Жондор. Жазба. Шеълар. – Тошкент: “Академнашр”, 2022.– Б. 85.

⁴ Шахриёр Ш. Нам. Шеълар. – Тошкент: “Академнашр”, 2022. – Б. 81.



Tangrining betakror yaratig‘idan mutaassir bo‘layotgan shoir borliqni badiiy idrok etishga, uni obrazli tasvirlshga urinadi.

Shuningdek ushbu faslda Madina Norchayeva, Xurshid Abdurashid, Bek Ali singari yosh ijodkorlarning ham borliqni idrok etish olamni badiiy-falsafiy idrok etish dialektikasi she’rlari tahlili orqali aniqlandi.

Xulosa

O‘zbekiston mustaqillik davrida yosh shoirlarning ijodi zamonaviy adabiyotga yangi nafas kiritdi. Ularning asarlarida milliy qadriyatlar, ijtimoiy masalalar va shaxsiy his-tuyg‘ularning uyg‘unligi, shuningdek, yangi badiiy uslublar va an’anaviy shakllarni birlashtirish alohida ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida ko‘rilgan ijod namunalari shoirlarning yuqori darajadagi badiiy mahoratga erishganligini ko‘rsatadi. Ijodlarida paralel ravishda o’tgan va zamonaviy tajribalarni o‘zida aks ettiruvchi yo’nalishlar mavjud. Ushbu ijod namunalari milliy adabiyotimizning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi va kelajakda yangi talantlar yetishtirish uchun poydevor bo‘ladi. Ovoz va uslub jihatidan xilma-xillik yosh shoirlarning adabiy didida badiiy jangga kirishga tayyor ekanligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. –Тошкент,15-бет.(126 б)
2. Жонтемир Жондор. Жазба. Шеърлар.–Тошкент:“Академнашр”, 2022. – Б.24.
3. Норчаева М. Қумару. Шеърлар. – Тошкент: “Академнашр”, 2022. – Б.88.
- 4.Шахриёр Ш. Нам. Шеърлар. – Тошкент: “Академнашр”, 2022. – Б. 46.